

**BOSHLANG'ICH SINFLRADA TAFAKKURNING TAKOMILLASHUVIDA
AFSONA VA RIVOYATLARNING TA'SIRI**

Asrayeva Gulmiraxon Ibroximjon qizi
Namangan viloyati Uychi tumanidagi 46-maktab
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarda fanga oid tayanch kompetensiya elementlari shakllantirish jihatlari aytib o'tilgan. Tanlangan metodni qo'llash orqali o'quvchilarning tarixga, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'quvchilar ijodiy, erkin o'z fikrlarini bildirishga harakat qiladilar, bu bilan ularning mustaqil fikri, dunyo qarashi o'sadi, darsdagi qiziqishlari, topqirliklari, zukkoligi, tezkorligi, faolliklari oshib borishi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Rivoyat, innovatsion metod, boshlang'ich ta'lim, to'rt pog'onali, Ibn Sino.*

Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarini afsona va rivoyatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Afsona va rivoyatlar bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan poklik tuyg'ulariga orzuga bo'ladigan hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni, fahm-farosatni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at predmetlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi kerak.

Afsona va rivoyatlar qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchilarni shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllanishga xizmat qiladi. Ayniqsa, darsda o'quvchilarni faolligini oshiradigan ruhiyatlarini shakllantiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr tabiatidan kelib chiqib rollarga bo'lib o'qitish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qish darslarida afsona va rivoyatlarni o'rganishdan maqsad tarbiyaviy vazifaning hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyatlar, mehnat o'tmish o'zbek xalq qahramonlari bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, fikri, xarakteri, tasavvur va tushunchasi, idrok etish qobiliyati, irodasi, qiziqishi faolligi kabi ruhiy holatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Shunga ko'ra afsona va rivoyatlar o'quvchilarni ruhiyatini o'stirishga xizmat qiladi Vatan haqidagi tasavvurlarini boyitib boradi.

Bola 1-sinfga kelganida taxminan 1300, 1400 atrofida so'z boyligiga ega bo'ladi. Maktab ta'limi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati bilan unga har kuni 5-6 ta yangi so'z o'rgatiladi va bu so'zlar uning lug'atidan joy olishi hamda mustahkamlanishi kuzatilib boriladi. O'quvchilarni so'z boyligini oshirishda, uning ruhiyatini shakllanishida afsona va rivoyatlarning samarasi kuchli bo'ladi. O'quvchilar bilimini rivojlantirish va uning nufuzini oshirishda pedagogik, metodik va psixoplogik tamoyillarga amal qilib, har

bir o'qituvchi o'z konsepsiyasiga ega bo'lishi va tizimli ravishda bolalar ona tili o'qitishning eng maqul uslublarini qo'llash orqali ko'zda tutgan maqsadiga erishishi aniq. O'qituvchi bolalar ruhiyatini chuqur o'rganib, ularning har biriga o'ziga xos munosabatda bo'lish, nutqida tasviriy vositalarni ishlatishga o'rgatishni taminlash kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy talablardan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirib o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fikrlashga o'rgatishdir. DTSdan kelib chiqib "Shiroq" afsonasini o'quvchilarga o'rgatishda aqliy hujum metodidan foydalanib, savol, javoblar o'tkazamiz bu esa o'quvchilarning ruhiyatini takomillashishida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ta'limdagi movafaqqiyatni belgilaydi.

Dunyo ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo'lak, yangi islohatlar davrida ta'lim tajribalariga tayanib ish tutmoq yaxshi natijalarga olib keladi. Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amirika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyutiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Turli ta'lim ko'nikmalarini bolalar ongiga singdirish, milliy tarbiyani esa boshlang'ich ta'limda shakllantirish, yaponlarga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobilyatiga ega bo'lishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Shu bilan birgalikda bolalar milliy qahramonlarini ham yaxshi bilmog'i zarur. Yaponiyada boshlang'ich sinf o'quvchilari afsona va rivoyatlarni ham o'zlashtirmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyasi shakllanishida ham afsona va rivoyatlarning o'rnini beqiyosdir. Masalan, "Shiroq" afsonasida Vatanparvarlik, jasurlik, insoniylik olg'a suriladi. Bu asosda bolalar ruhiyati takomillashadi. Afsonalarimizni bolalarga o'rgatishda har xil ilg'or vositalar asosida dars jarayonini olib borsak maqsadga erishamiz.

Rivoyatlar har bir sinf kesimida o'rganiladi. 3-sinf o'qish darsligida yettita rivoyat kiritilgan bo'lib, shu rivoyatlarimizdan biri "Ibn Sinoning shogirdlari" rivoyatini quyidagi, "To'rt pog'onali" metod orqali dars jarayonini olib boramiz.

"To'rt pog'onali" metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

"Tushuntirish" bosqichida o'qituvchi o'quvchilarga avval oddiy rivoyatni o'qib, tushuntirib beradi. "Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish" bosqichida o'qituvchi o'quvchilarga topshiriqni qanday bajarish

kerakligini amalda ko'rsatib beradi.

Uchinchi bosqichda o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi, o'quvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o'qituvchi o'z fikrini bildirib, xatolarini to'g'rilab turadi.

"Mashq qilish" bosqichida ta'lim oluvchilarning hatti-harakati o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. O'quvchilar ish amallarini mukammal o'zlashtirganlaridan so'ng, uni mustaqil bajaradilar.

"To'rt pog'onali" metodning asosiy belgisi o'quvchilarning harakatlari O'qituvchi ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.

"To'rt pog'onali" metodning afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- oddiy ish bosqichlarini o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

Ibn Sinoning shogirdlari bular quyidagilar:

- Tozalik
- Parhez
- Badantarbiya
- Bemor kayfiyati

Natijaviyligi:

- Ziyraklik oshadi;
- Mustaqil fikrlash ko'nikmasi rivojlanadi;
- Qiyosiy o'rganish rivojlanadi.
- So'z ajratish malakasi rivojlanadi.

Bunday interfaol darslarni tashkil etish o'quchilardan darsda faol ishtirok etishni, manbalardan foydalanib, mustaqil yakka holda guruhda jamoa bo'lib bilim olishni mavzu yuzasidan o'z mustaqil fikrini bildirishni talab etadi. Ilg'or pedagogik texnologiya usullari asosida tashkil etiladigan darslar muntazam o'tkazilib borilsa o'quvchida mustaqil bilim olish, olingan bilimlarni tahlil qilib, erkin fikr bildirish tajribasi boshlang'ich sinflardan oq shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, N.M. Tojiboyeva Pedagogik jaaryonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. -Toshkent : "Sano - standart", 2012.
2. "Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi seminar trening mteriallari.- T., 2002.
3. Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar Respublika ilmiy- amaliy konfrensiya materiallari Toshkent -2014.